

QORAQALPOQ AN'ANAVIY LIBOSLARINING XIX–XX ASRLARDAGI O'ZGARISH TENDENSIYALARI

Ismailova Ayjamal Jalgasovna

QMU Re'li suvret ham ameliy korkem oner kafedrası oqitiwshı stajyori.

Jalgasbaeva Aynur Aburayxanovna

QMU 2-kurs studentı.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20456548>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining an'anaviy liboslari XIX–XX asrlar davomida tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida qanday o'zgarib borganı yoritiladi. Xomashyo turlari, mato ishlab chiqarish, teriga ishlov berish, kashtachilik san'ati hamda rang va naqshlarning ramziy ma'nolari tahlil qilinadi. Shuningdek, erkaklar va ayollar kiyim majmualarining tarkibi hamda modernizatsiya davrida yuz bergan transformatsiyalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida qoraqalpoq liboslari etnik o'zlikni ifodalovchi muhim madaniy qatlam ekani va zamonaviy davrgacha uzviy rivojlanib kelgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq liboslari, an'anaviy kiyim, kashtachilik, milliy bezak, XIX asr, XX asr, madaniy transformatsiya.

Milliy libos har bir xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va turmush tarzini o'zida mujassam etuvchi muhim madaniy merosdir. Qoraqalpoq xalqi ham o'zining boy kiyim madaniyati bilan ajralib turadi. XIX–XX asrlar esa jamiyat hayotida keskin siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar davri bo'lib, bu jarayonlar an'anaviy kiyimlarda ham aks etgan.

Qoraqalpoqlarda ipakchilik asosan o'troq dehqonchilik rivojlangan hududlarda taraqqiy etgan. Ipak (jipek) matosi ayniqsa bayramona kiyimlar uchun qadrlangan.

Oqartirilgan chiziqlar tushirilgan to'q qizil movut rangli ipakdan ayollarning bosh chaponlari — qizil jegde, shuningdek ayollar va erkaklarning bayram choponlari tikilgan.

Mahalliy ipak kam bo'lgani sababli, ko'pincha pillani yoki tayyor ipak mahsulotlarini qo'shni o'zbeklardan sotib olishgan.

Jun mato ishlab chiqarish esa asosan uy hunarmandchiligi doirasida bo'lib, bu ish bilan ayollar shug'ullangan. Junga dastlabki ishlov berishdan tortib, ip yigirish va to'qishgacha bo'lgan jarayonlar ayollar zimmasida bo'lgan. Xomashyo sifatida qozoq zotdor qo'ylarining juni, echki va tuya juni ishlatilgan. Eng sifatli jun kuzda olingan jun hisoblangan.

Teri bilan ishlov beruvchi ustalar konshi deb atalgan. Ular asosan qoramol, ot va tuya terisini qayta ishlagan. Ayniqsa qoramol terisi yuqori baholangan va undan ko'pincha oyoq kiyimlar tikilgan. Teri ishlash jarayonida erkaklar ham, ayollar ham qatnashgan, biroq etikdo'zlik asosan erkaklar kasbi bo'lgan.

Qoraqalpoq kashtachiligi an'anaviy kiyim madaniyatining eng muhim qismlaridan biridir.

Kashta nafaqat kiyimlarda, balki ro'zg'or buyumlarida ham qo'llanilgan. Eng boy kashta namunalari ayollarning bayramona kiyimlarida mujassam bo'lgan. XX asrning birinchi choragidan boshlab kashtali buyumlar soni keskin kamaygan, bunga fabrika mahsulotlari va yevropacha kiyinish urfining kirib kelishi sabab bo'lgan.

Kashtachilikda ranglarga alohida e'tibor qaratilgan. Asosan yetti xil rang ishlatilgan.

Ayniqsa qizil rang ayollar kiyimida keng tarqalgan bo'lib, u hayotiy kuch, baraka va himoya ramzi sifatida talqin qilingan.

Qoraqalpoq ayollarining kashtalari mazmunan va vazifasiga kóra boy edi. Ayollar ip gazlama va ipak iplardan foydalanib bóz va movut, bazan shoyiga kashta tikishgan.

Kashta solish texnikasi ham har xil bólgan va bezaklari óziga xos choklarga ega bólib, qat'iy maqsadda foydalanilgan.

Qoraqalpoq xalqini naqsh-bezak sanatini tadqiq etishning xozirgi bosqichida, uni tavsiflash bóyicha yagona fikr mavjud emas. Har bir tadqiqotchi naqsh bezaklarga ózining talqinini taklif etmoqda. Biroq umuman olganda, tadqiqotchilarning aksariyat qismi umumetirof etgan: hayvonlar va ósimlik tasviri, geometrik shakllarni tasvirlash tarafdorlaridir

Manbalarga ko'ra, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida erkaklar kiyim majmuasiga *ko'ylak, ishton, shapan, kamzul, taqiya, etik va mahsi* kirgan. Erkaklar kiyimi qat'iy ko'rinishi va yorqin ranglarning kam qo'llanishi bilan ajralib turgan.

Shunday qilib, qoraqalpoq erkaklarining kiyimi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ózining ananaviy xususiyatlarini saqlab qoldi. Shu bilan bir qatorda Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kiyimlari bilan umumiy jihatlari ham mavjud. Mintaqa xalqlari hayotidagi global siyosiy va iqtisodiy ózgarishlar ananaviy kiyim-kechaklarga jiddiy tasir kórsatdi. Unda faqat bazi elementlar saqlab qolinib, Evropa uslubidagi kiyim bilan almashtirildi.

Ayollar kiyim majmuasiga ko'ylak, ishton yoki dambal, shapan, kamzul, ton va bosh yoping'ich — *jegde* kirgan. Zargarlik buyumlari ayollar kiyimining ajralmas qismi hisoblangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, qoraqalpoqlarning ananaviy kiyimlari bezagi, uning taraqqiyoti etnosning shakllanish tarixi bilan chambarchas bog'liq va uni madaniyatining óziga xosligini namoyon etadi.

Kiyimdagi naqsh elementlarining nomlari atrof muhit, xójalik hayot, turmush, xalqning diniy tasavvurlarini ifoda ettiradi. Kiyimlarda ranglarga kóproq etibor qaratiladi. Kópgina turkiy xalqlar uchun ranglar bir-biriga yaqin ramziy manoga ega. Ranglarni idrok etishda xójalikning turi va kóchmanchi yoki dehqonchilik madaniyatiga mansubligi muhim ahamiyatga ega.

Siyosiy voqealar, sanoat ishlab chiqarish va madaniy ta'sirlar natijasida kiyimlarda sezilarli ózgarishlar yuz berdi. Yevropa uslubidagi kiyimlar kirib kelib, milliy elementlar asta-sekin kamayib bordi. Qoraqalpoq an'anaviy liboslari XIX–XX asrlar davomida murakkab tarixiy jarayonlar ta'sirida ózgarib borgan. Shunga qaramay, milliy bezaklar va ramziy ranglar madaniy xotira sifatida saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tomina T.N. O'rta Osiyo ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlari kiyimlarida matolar.
2. O'temisov A. Qoraqalpoqlarning hunarmandchilik an'analari. Nukus, 1991.
3. Jdanko T.A. Qoraqalpoq xalqining naqsh-bezak san'ati.